



## YANGI O'ZBEKISTONDA KONFESSIYALARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHNING HUQUQIY VA AMALIY JIHATLARI

G'iyosiddinov Abdulloh Sirojiddin o'g'li  
Farg'ona davlat universiteti yurisprudensiya  
yo'nalishi 1-bosqich talabasi.  
abdulloh11818@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17758812>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> November 2025  
Accepted: 12<sup>th</sup> November 2025  
Published: 28<sup>th</sup> November 2025

### KEYWORDS

Yangi O'zbekiston, konfessiyalararo totuvlik, vijdon erkinligi, qiyosiy tahlil, dunyoviy davlat, diniy bag'rikenglik, Konfessiyalar ishlari bo'yicha kengash, islom, BMT rezolyutsiyasi, barqarorlik.

### ABSTRACT

*Maqola Yangi O'zbekistonda konfessiyalararo totuvlikni ta'minlashning huquqiy negizlari va uning amaliy ifodasiga bag'ishlangan. Unda sohadagi qonunchilik evolyutsiyasi, xususan, 1998 va 2021-yilgi qonunlarning qiyosiy tahlili misolida davlat siyosatining liberallashuvi hamda "kuzatuvchi" funksiyasidan "kafil" maqomiga o'tish jarayoni ochib berilgan. Shuningdek, mavzu doirasida Konfessiyalar ishlari bo'yicha kengashning o'rni va BMT rezolyutsiyasi kabi global tashabbuslarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot yakunida ushbu yondashuvning ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi o'rni bo'yicha tegishli xulosalar keltirilgan.*

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududi asrlar davomida Sharq va G'arb sivilizatsiyalarini bog'lovchi ko'priklar vazifasini o'tagan. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, bu hududlar azaldan nafaqat savdo chorrahasi, balki turli madaniyatlar va dinlar — Islom, Xristianlik, Buddaviylik, Zardushtiylik va boshqa e'tiqod vakillarining tinch-totuv yashash markazi bo'lib kelgan [1]. Ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan ushbu bag'rikenglik an'anasi bugungi kunda ham O'zbekiston jamiyatining ajralmas qismidir.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bilan bir qatorda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Ular o'rtasidagi o'zaro hurmat, hamjihatlik va muloqot muhiti jamiyat hayotining barqarorligi yo'lidagi muhim omil hisoblanadi.

Dunyoda geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi, turli mintaqalarida diniy va etnik asosdagi ziddiyatlarning ortib borishi kuzatilmoqda. Bunday murakkab sharoitda ko'p millatli va konfessiyali O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlikni saqlash, turli din vakillari o'rtasidagi totuvlikni mustahkamlash davlat xavfsizligining muhim omiliga aylandi. Shu bois, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida diniy bag'rikenglikni ta'minlash va konfessiyalararo muloqotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Mazkur maqolada O'zbekistonda konfessiyalararo totuvlikni ta'minlashning huquqiy asoslari hamda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Konfessiyalararo totuvlikni ta'minlashning mustahkam huquqiy asosi, avvalo, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Bosh qomusimizda vijdon erkinligi kafolatlangan bo'lib, bu mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi [2]. Mazkur soha "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida tubdan

takomillashtirilib, vijdon erkinligini va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi [3].

Xususan, 2021-yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun sohadagi munosabatlarni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi [4]. Qonunchilikdagi eng muhim yangiliklardan biri shundaki, davlat nafaqat kuzatuvchi, balki konfessiyalarning tinch-totuv yashashiga bevosita kafil sifatida belgilandi. Bu norma davlatning turli din vakillari o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashish majburiyatini huquqiy jihatdan mustahkamladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, yangi qonun avvalgi (1998-yilgi) tahrirdan farqli o'laroq, fuqarolarning diniy huquqlarini cheklashga asos bo'lishi mumkin bo'lgan ayrim bahsli normalardan xoli bo'lib, asosiy e'tiborni vijdon erkinligini amaliy ta'minlashga qaratdi [5]. Xususan, eski qonunda nazarda tutilgan, fuqarolarning jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishini taqiqlovchi normaning olib tashlanishi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi bo'lmish e'tiqod erkinligini ta'minlash yo'lidagi dadil qadamlardan biri bo'ldi. Shu bilan birga, mahalliy diniy tashkilotlarni tuzish uchun talab etiladigan tashabbuskorlar soni ikki barobarga — yuz nafardan ellik nafarga qisqartirildi. Ushbu o'zgarish hamda ro'yxatdan o'tkazish jarayonining to'liq elektron shaklga o'tkazilishi sohadagi byurokrtiyani yo'qotib, diniy jamoalarning qonuniy maqomga ega bo'lish imkoniyatini oshirdi. Shuningdek, 2025-yilda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati Konsepsiyasi sohadagi strategik yondashuvlarni belgilab berdi [6]. Mazkur hujjatda davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, tenglik va erkin tanlov bilan bir qatorda, "dinlararo muloqot va o'zaro tushunish" tamoyili alohida mustahkamlandi. Ushbu prinsipga ko'ra, davlat turli konfessiyalar o'rtasida bag'rikenglik muhitini ta'minlab, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi.

Konsepsiyaning yana bir muhim jihati shundaki, unda dunyoviylik tamoyilining mohiyati ilmiy asosda ochib berilgan. Unga ko'ra, dunyoviy davlatda vijdon erkinligi to'laqonli amalga oshirilishi uchun davlat boshqaruvi diniy qarashlardan ajratilgan holda, Konstitutsiya va qonunlarga asoslanadi. Aynan shu yondashuv, ya'ni, dinning davlatdan ajratilganligi va davlat organlari faoliyatining qat'iy huquqiy normalarga tayanishi ko'p millatli va konfessiyali O'zbekistonda turli e'tiqod vakillarining o'zaro hurmat va hamjihatlikda yashashini ta'minlovchi barqaror muhitni yaratadi.

Amaliy jihatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Yangi O'zbekistonda konfessiyalararo totuvlikni ta'minlashda jamiyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashildi. Tahlillarga ko'ra, aholining 88 foizini islom dini vakillari tashkil etadi. Shu asnoda, 2018-yilda o'tkazilgan Qur'oni Karim musobaqasi hamda Islom sivilizatsiyasi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining tashkil etilishi ma'naviy hayotdagi muhim voqea bo'ldi. Mazkur islohotlar islom dinining asl insonparvarlik va tinchliksevarlik mohiyatini namoyon etish orqali, yurtimizdagi konfessiyalararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Shuningdek, Yangi O'zbekistonda vijdon erkinligini ta'minlash siyosati mamlakatdagi boshqa din vakillarini ham to'laqonli qamrab oldi. Bugungi kunda xristianlikning Pasxa va Rojdestvo, yahudiylikning Hanukka kabi diniy bayramlari nafaqat tor doirada, balki jamiyatda ochiqlik va o'zaro hurmat ruhida keng nishonlanayotgani fikrimizning amaliy isbotidir. Har yili "Xalqaro bag'rikenglik kuni" munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirlar turli konfessiya vakillari uchun hamkorlikni rivojlantirish, do'stona aloqalarni mustahkamlash va o'zaro sog'lom muloqot uchun zamin yaratdi.

Tinchlik va ma'naviy barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi konfessiyalararo muloqotni kuchaytirish maqsadida Din ishlari bo'yicha qo'mita huzurida Konfessiyalar ishlari bo'yicha kengash tuzildi. Qo'mita raisi va 16 ta konfessiya yetakchisini bir stol atrofida jamlagan ushbu tuzilma dolzarb masalalarni bamaslahat hal etish hamda konfessiyalararo hamkorlikni mustahkamlashning samarali mexanizmiga aylandi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlari nafaqat ichki siyosat, balki global tashabbuslarda ham ko'rinadi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2018-yilda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" maxsus rezolyutsiyasining qabul qilinishi buning yaqqol tasdig'idir [7]. Davlat rahbari ushbu taklifni ilgari surar ekan, islom dinining tinchlik va ezgulik dini ekanligiga alohida urg'u berdi: "Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azal-azaldan ezgulik va tinchlikni, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylash va boyitishga chorchashini qadrlaymiz" [8].

Yangi O'zbekistonda konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ushbu soha davlat siyosatining strategik yo'nalishi sifatida yangi bosqichga ko'tarildi. Eng avvalo, milliy qonunchilik bazasining takomillashtirilishi va liberalizatsiya qilinishi davlatning diniy sohadagi funksiyasini tubdan o'zgartirdi. Davlat endilikda vijdon erkinligining kafili hamda konfessiyalararo muloqotning faol tashabbuskori sifatida namoyon bo'lmoqda.

Amaliy jihatdan olib qaraganda, yurtimizda o'ziga xos "ma'rifiy bag'rikenglik" modeli shakllandi. Bu model bir tomondan, aholining asosiy qismini tashkil etuvchi musulmonlarning diniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish va islom dinining tinchlikparvar mohiyatini tiklashga asoslansa, ikkinchi tomondan, boshqa barcha konfessiya vakillari uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratish tamoyiliga tayanadi. Ushbu yondashuv jamiyatda turli e'tiqod vakillarining o'zaro ishonch ruhida yashashini ta'minlab, mamlakatdagi barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam poydevoriga aylanmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jurayev, B.Iminov, L.Begimqulova, Sh.Oxunjonova. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" darslik. Toshkent. 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil. - [Elektron manba]: <https://lex.uz/docs/-6445145>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. - [Elektron manba]: <https://lex.uz/docs/5841063>
4. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). O'RQ-699-son. 2021-yil 5-iyul. - [Elektron manba]: <https://lex.uz/docs/5491534>
5. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni (eski tahriri). 1998-yil 1-may. - [Elektron manba]: <https://lex.uz/docs/-65108> (O'z kuchini yo'qotgan).
6. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati Konsepsiyasi. 2025-yil. [Elektron manba]: <https://lex.uz/ru/docs/-7404923>

7. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” maxsus rezolyutsiyasi (A/RES/73/128). 2018-yil 12-dekabr.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 2017-yil 19-sentyabr. – [Elektron manba]: <https://president.uz/oz/lists/view/1063>

